



A NEW LEVEL OF INDUSTRIAL COOPERATION WITH ASIAN COUNTRIES IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

Nilufar Esonova

senior lecturer

*University of Economics and Pedagogy
Karshi, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbekistan, independence, foreign, countries, industry, Asia, Japan, South Korea, Malaysia, joint venture, official visit.

Received: 27.11.24

Accepted: 29.11.24

Published: 01.12.24

Abstract: This article discusses the industrial cooperation of Uzbekistan with Asian countries during the years of independence and its results. Information on the economic cooperation of Uzbekistan with countries such as Japan, South Korea and Malaysia is summarized.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING OSIYO DAVLATLARI BILAN SANOAT SOHASIDAGI HAMKORLIGININIG YANGI BOSQICHI

Nilufar Esonova

katta o'qituvchi

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Qarshi, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: O'zbekiston, mustaqillik, xorijiy, mamlakatlar, sanoat, Osiyo, Yaponiya, Janubiy Koreya, Malayziya, qo'shma korxona, rasmiy tashrif.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning mustaqillik yillarida Osiyo mamlakatlari bilan sanoat sohasidagi hamkorligi va uning natijalari xususida fikr yuritiladi. O'zbekistonning Yaponiya, Janubiy Koreya va Malayziya kabi davlatlar bilan olib borgan iqtisodiy hamkorligiga doir ma'lumotlar umumlashtiriladi.

НОВЫЙ УРОВЕНЬ ПРОМЫШЛЕННОГО СОТРУДНИЧЕСТВА СО СТРАНАМИ АЗИИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Нилуфар Эсонова

старший преподаватель

*Университет экономики и педагогики
Карши, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Узбекистан, независимость, зарубежные страны, промышленность, Азия, Япония, Южная Корея, Малайзия, совместное предприятие, официальный визит.	Аннотация:	В данной статье рассматривается промышленное сотрудничество Узбекистана со странами Азии в годы независимости и его результаты. Обобщена информация об экономическом сотрудничестве Узбекистана с такими странами, как Япония, Южная Корея и Малайзия.
------------------------	---	-------------------	--

O'zbekistonda mustaqillik yillarida xalqaro munosabatlar masalasida yangi imkoniyatlar vujudga keldi. Qisqa fursat mobaynida O'zbekiston dunyoning qator rivojlangan mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda hamkorlikni yo'lga qo'yilib, sohaning huquqiy asoslari to'la yaratildi. 1992 yilning iyulida "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi, 1994 yilning may oyida O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, 2000 yilning may oyida yangi tahrirdagi "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni mamlakat parlamenti tomonidan qabul qilindi. Mazkur huquqiy me'yoriy hujjatlar asosida xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik olib borilmoqda. Shuningdek, siyosiy mustaqillikka erishgan O'zbekiston mamlakat va jamiyatni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ahloqiy jihatdan yangilashning strategik vazifalarini aniqlab oldi.

O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan o'zaro aloqalarida iqtisodiy sohaning asosiy yo'nalishi hisoblanmish sanoat sohasidagi hamkorlik muhim o'rinnegallaydi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda bu sohaga jiddiy e'tibor qaratildi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi so'zlarini keltirish lozim:" Hamma joyda sarmoyaga ega bo'lgan sheriklarni qidirish kerak. Qo'shma korxonalar barpo etish lozim. Biz faqat shu yo'l bilangina korxonalarning kuchli raqobat sharoitda ishlashni ta'minlashimiz mumkin. Shu yo'l bilangina jahon bozorida mahsulotimizga munosib o'rinnegallab borishimiz mumkin".

O'zbekiston keyingi yillarda ayniqsa Osiyo mamlakatlari bilan sanoat sohasida qizg'in hamkorlik olib bormoqda. Bunda Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Turkiya, Janubiy Koreya, Malaziya kabi davlatlari muhim o'rinnegallab kelmoqda.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab Yaponianing "ChoriKo, LTD" firmasi faoliyat ko'rsata boshladi. Mazkur firma MDH mamlakatlarda ham muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatib, yangi bozorlarda jahonga mashhur "Soni", "Kassio", "Suzuki", "Brizer", "Nitsuko" va boshqa mamlakatlarni qator yirik firmalari vakili sifatida ham ish olib bordi. Yaponianing "ChoriKo, LTD" firmasi O'zbekiston bozoriga yengil sanoat mahsulotlarini yetkazib berishda katta tajriba ortirgan bo'lib, shuningdek ip gazlamalar, ip gazlama ishlab chiqarish chiqitlari, pilla va shoyi chiqitlari, paxta tolasi va paxta tozalash sanoati chiqitlari importi

bilan ham shug‘ullandi. “Yaponiya texnikasi va texnologiyasi biz uchun qanchalik zarur bo‘lsa, bizdagi zaxira va xom ashyolar Yaponiya uchun shunchalik zarur - deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov.

O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasida sanoat sohasidagi hamkorlikning kuchayishida O‘zbekiston hukumatining 1994 yil 16-17 may kunlari Yaponiyada bo‘lishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Tashrif chog‘ida O‘zbekiston hukumati Yaponiya bosh vaziri Sutomu Xata, Yaponiya Imperatori Akixito, Yaponiya savdo va sanoat vaziri Etyiro Xatani va boshqa hukumat a’zolari bilan uchrashdi ikki o‘rtasida davlatlararo munosabatlар asoslariga doir qo‘shma bayonat imzoladi. O‘zbekistonda Yaponianing dunyoga mashhur “Mitsui va XO LTD”, “Mitsubisi korporeyshn”, “Sumitot korporeyshn”, “Chori” kompaniyalarning doimiy vakolatxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston – Yaponiya iqtisodiy hamkorligi ulkan loyihalarni ham o‘z ichiga oladi. Masalan, Ko‘kdumaloq, va Sho‘rtandagi neft-gaz sanoati inshootlarini shular jumlasiga qo‘shish mumkin. 1995-2002 yillar davomida Yaponianing O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyasi bir milliard AQSh dollaridan oshib ketdi.

2002 yil 10 aprelda Shahrisabzda O‘zbekiston, Turkiya va Yaponiya ishbarmonlari hamkorligida “Oqsaroy to‘qmachi LTD” qo‘shma korxonasi ishga tushirildi. Qurilish ishlari 2000 yilning sentyabrida boshlanib, uning qiymati 66.766 million AQSh dollariga teng edi.

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab tashki siyosiy faoliyati Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlariga alohida e’tibor qaratildi. Mazkur mintaqa bilan hamkorlikda Malayziya davlati muhim o‘rin egallab kelmoqda. Ikki davlat o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni shakllantirishda 1992 yil 21 fevralda O‘zbekiston-Malayziya o‘rtasida diplomatik munosabatlarning o‘rnatalishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ikki davlat o‘rtasida neftъ va gaz konlarini o‘zlashtirish, iqtisodiy va texnik hamkorlik to‘g‘risida bitimlar imzolandi.

Malayziya bosh vaziri Dato Seri Mahathur Bin Muhammad 1993 yil mart oyida O‘zbekistonga tashrif buyurdi. 2003 yil sentyabrda Malayziya podshosi Yang Di-Pertuan Agong X11 Tuyanku Sayid Sirojiddin Sayid Putra Jamolullayl Oliy hazratlari O‘zbekistonda bo‘ldi. 2005 yilning 2 oktyabrida O‘zbekiston delegatsiyasi Malayziyaga rasmiy tashrif buyurdi. Uchrashuv chog‘ida O‘zbekiston va Malayziya ishbilarmon doiralari o‘rtasida 16 ta hujjat imzolanadi. Ushbu hujjatlar bank-moliya, investitsiya, aloqa texnologiyalari va axbarotlashtirish, yengil va og‘ir sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalardagi hamkorlikni ko‘zda tutadi. “Petronans” korparatsiyasi bilan imzolangan ikkita hujjatni ham qo‘o‘shib hisoblaganda iqtisodiy masalalar bo‘yicha 18 ta kelishuvga erishildi. Ularning molyaviy qiymati 400 million AQSh dollarini tashkil qildi.

O‘zbekiston-Malayziya iqtisodiy rivojlanishidagi muvaffaqiyatlar ko‘p jihatdan bir-birini sarmoyaviy jihatdan qullab-quvvatlashga, sanoat taraqqiyotidagi ilg‘or tajriba va zamonaviy

texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilishga, iqtisodiyotning ustuvor sohalarida qo'shma korxonalarini barpo etish bilan bevosita bog'liq bo'ldi.

1994 yil 3 may "O'zbekteftgaz" Milliy Xolding Kompaniyasi va Malayziyaning Probadi SDN BXD kompaniyasi bilan hamkorlikda neft konlarini topish va sohani rivojlantirishga doir hujjat natijasida "O'zMaloyl" qo'shma korxonasi tashkil topdi. 2005 yilning oktyabrida esa "O'zbekneftgaz" Milliy Xoldingi Kompaniyasi va "Petronas" korporatsiyasi o'rtaida neft zahiralarini birgalikda o'zlashtirish bo'yicha hamkorlik va kelishuv to'g'risida hujjat imzolanib, amaliyotga tadbiq etildi. 2006 yilning may oyida "O'zekspotsentr"da O'zbekiston neft va gaz (JGU-2006) 10-Xalqaro ko'rgazmasida Rossiya kompaniyalari bir qatorda Malayziyaning "Petronas" kompaniyasi ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy, xususan, sanoat sohasidagi hamkorligida Janubiy Koreya davlati ham o'ziga xos o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi davlat a'zolarining mazkur davlatga 1992 yilgi safari chog'ida "DEU" kompaniyasiga qarashli "Pablik Matros" zavodida bo'ldi va korxonada ishlarining borishi bilan tanishdi. Mamlakatimizda ham shu turdag'i korxona bunyod etish g'oyasi tug'ildi. O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasi 1992 yil noyabrida Andijonda Asaka avtomobil zavodini qurish to'g'risida qaror qabul qilinib, korxona uch yil ichida qurilib ishga tushirildi. Zavod qurilishiga jalb etilgan mablag'ning 52 foizi O'zbekiston, 48 foizi Janubiy Koreya hisobiga to'g'ri keldi va 1996 yil 25 martda zavod foydalanishga topshirildi. "Damas", "Tiko" va "Neksiya" mashinalari chiqarilishi yo'lga qo'yildi. "O'zKoram", "O'z Dong", O'z tong Xong", "O'z dong Yang" qo'shma korxonalarini ham ishga tushirildi. Bular mamlakatlarni bamper va uskuna panellarini, o'rindiqlar, avtomobil bo'laklari, ichki ehtiyyot qismlar va boshqa uskunalarini tayyorlab beradi.

Xullas, O'zbekistonda mustaqillik yillarda Osiyoning qator rivojlangan davlatlari bilan sanoat sohasidagi hamkorligi yo'lga qo'yilgan bo'lib, amalga oshirilgan ishlar o'z ijobiliy natijalarini ko'rsatdi. Bunda ayniqsa Yaponiya, Janubiy Koreya, Malayziya davlatlarining o'mni katta bo'ldi. Mazkur davlatlar bilan O'zbekiston o'rtaida imzolangan hujjatlarga muvofiq sanoatning turli yo'nalishlarida o'zaro manfaatli aloqalar yo'lga qo'yilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -Toshkent: O'zbekiston, 2017.- 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 104 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliv bahodir. 2-jild. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2018. – 508 b.
6. Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish-eng muhim vazifamizdir” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvida so‘zlagan nutqi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2021-yil 21 avgust.
7. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag‘ishlangan marosimdagি nutqi. review.uz
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. www. lex.uz.
9. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
10. O‘zbekistonning eng yangi tarixi xrestomatiyasi. Mas’ul muharrir: A.Sabirov, S.Po‘latova. – Toshkent, 2014.
11. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013.
12. O‘zbekistonning eng yangi tarixidan ocherklar: Metodologiya, tarixshunoslik va manbashunoslik masalalari. Mas’ul muharrir: A.Sabirov. – T. 2014.: